



TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHDA AKTIV VA PASSIVLARNING AHAMIYATI

IMPORTANCE OF ASSETS AND LIABILITIES IN ENSURING THE LIQUIDITY OF COMMERCIAL BANKS

¹**Baxriddinov Sharofiddin**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti.*

G-mail: baxriddinov5599@gmail.com ORCID: 0000-0001-7899-0217

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklari likvidligini ta'minlashda aktiv va passivlarning o'rni va ahamiyati o'rganilgan hamda mazkur mavzuda tadqiqot ishlarini olib borgan iqtisodchi olimlarning fikrlari keltirilgan. Shuningdek, bank likvidligini boshqarishda aktiv va passivlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv masalalari ham yoritilgan.

Eng. - This article examines the role and importance of assets and liabilities in ensuring the liquidity of commercial banks and presents the opinions of economic scholars who have conducted research on this topic. In addition, the issues of management aimed at ensuring the balance between assets and liabilities in the management of bank liquidity are also addressed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, pul muomalasi, aktiv, passiv, likvidlilik, foiz stavkasi, rentabellik.*

❖ *commercial banks, money circulation, assets, liabilities, liquidity, interest rate, profitability.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari moliyaviy tizimning ajralmas va markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Ular nafaqat pul muomalasini tashkil etishda, balki iqtisodiyotni turli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Banklar faoliyatining samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimi aktivlar va passivlarni oqilona va strategik boshqarishdir. Ushbu moliyaviy vositalarning to'g'ri va muvozanatli boshqarilishi nafaqat bankning barqarorligi va rentabelligini oshirishga, balki uning bozor raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Bank likvidligi deganda, bankning o'z vaqtida va to'liq majburiyatlarini bajarish qobiliyati tushuniladi. Likvidlikning yuqori

darajasi bankga favqulodda moliyaviy vaziyatlarda ham o'z majburiyatlarini bajarish imkonini beradi va moliya bozorlarida ishonchni oshiradi. Shu bois, bank aktivlari va passivlari o'rtasida muvozanatni to'g'ri saqlash, ularning strukturasi, muddatlari, foiz stavkalari kabi jihatlarni hisobga olgan holda samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Masalan, uzoq muddatli aktivlar bilan qisqa muddatli passivlarni muvozanatlash bankning likvidlik xavfini kamaytiradi va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bankning likvidlik siyosati doirasida naqd pul zaxiralarini ushlab turish, investitsiyalar portfelini diversifikatsiya qilish va aktivlarni tez naqdga aylantirish imkoniyatlarini yaratish kabi choralar ko'riladi.

Shuningdek, makroiqtisodiy sharoitlar, bozor likvidligi va regulyatorlarning talablarini hisobga olgan holda likvidlikni boshqarish strategiyalari doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Shu bilan birga, banklar o'z faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, aktiv-passiv boshqaruvini optimallashtirish va risklarni minimallashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi zarur. Bularning barchasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish borasida iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqinlar beriladi. Jumladan, B. Gupning tadqiqotida bank aktivlari va passivlarini boshqarish — bu foiz stavkalari riskini kamaytirish, bank likvidligini ta'minlash hamda bankning bozor qiymatini oshirish maqsadida bank balansidagi aktiv va passivlarni rejalashtirish jarayoni sifatida qayd etiladi [4].

O.I.Lavrushin fikriga ko'ra, aktiv va passivlarni boshqarishning maqsadi bank faoliyatini risklardan himoyalash hisoblanadi [5]. Fikrimizcha, ushbu masalaga avvalo bank strategiyasi nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, strategiya asosida maqsadlar tizimi yotadi, ya'ni bank strategiyasi turli vaqt davrlarida turlicha maqsadlarni ko'zlaydi.

Banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy mohiyati shundaki, u boshqaruvning turli usullarini muvozanatli tarzda birlashtiruvchi jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy vazifasi — bank balansining barcha qismlarini uyg'un va samarali boshqarishdir.

V.V.Osadchiy tadqiqotlariga ko'ra, tijorat bankining aktivlari bankning buxgalteriya hisobida aks ettirilgan aktiv operatsiyalarining pul qiymatini ifodalaydi. Tijorat bankining

aktiv operatsiyalari foyda olish va likvidlikni saqlash maqsadida mavjud pul resurslarini joylashtirish hisoblanadi [6]. Tadqiqotchi izlanishlarida aktivlarni boshqarish va uning bank faoliyatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmagan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh. Abdullayeva aktivlarni boshqarishni o'z va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi hamda yo'llari sifatida ta'riflaydi. Mablag'larni joylashtirishda asosiy e'tibor qimmatli qog'ozlar va kredit bilan bog'liq operatsiyalariga qaratiladi [7].

Professor Sh.Abdullayevaning fikriga ko'ra, bankning aktivlarini boshqarish jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi va yo'llari sifatida tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining likvidligini boshqarish va bank faoliyatining uzluksizligini ta'minlash uchun yuqori likvidli aktivlarga ehtiyoj mavjud. Biroq, banklar ushbu mablag'larni kredit yoki boshqa aktiv operatsiyalarga yo'naltirishi natijasida likvidlik bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlari miqdoriga nisbatan talablar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ning "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomining 52-moddasiga ko'ra, 2020-yil 1-iyundan boshlab banklarning yuqori likvidli aktivlari jami aktivlardagi ulushi kun oxirida 10 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

Mazkur nizomda yirik qarz va mahsulot yoki vosita tushunchalariga aniqlik kiritilgan. Yirik qarzdor bank aktivlari tarkibida hajmi bank birinchi darajali kapitalining 5 foizidan

yuqori bo'lgan bir shaxs yoki bir-biriga daxldor shaxslar guruhiga tegishli qarzlar kiritiladi. Bankning yirik mahsulot yoki vositasi hajmi jami aktivlarning 1 foizidan ortiq bo'lgan bank mahsuloti yoki vositasi tushuniladi. Ushbu tushunchalar bank aktivlarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega hamda banklarning aktivlarini diversifikatsiyalash va monitoring qilish jarayonlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari tomonidan ko'chmas mulkni va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 8-iyunda ro'yxatga olingan 3441-son nizomga muvofiq, banklar tomonidan ko'chmas va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek, yuridik shaxslarning ustav fondidagi ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo'yiladigan talablar belgilab berilgan. Banklarning balansidagi asosiy vositalar daromad keltirmaydigan aktiv sifatida tasniflanadi.

Mazkur nizomning 3-moddasiga asosan Bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yoki zaruriyati mavjud bo'lmagan (foydalanilmaydigan) ko'chmas mulk va boshqa mol-mulklarning jami qiymati bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining bir barobaridan oshmasligi kerak. Bunday sharoitda banklar qimmat binolar yoki avtotransport vositalaridan foydalanishni cheklanadi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga va banklarning investision portfelini boshqarishga qo'yiladigan talablar belgilangan. Mazkur nizom talablariga muvofiq

bank tomonidan bir yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini

yoki aksiyalarini olish bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining o'n besh foizidan oshmasligi kerak. Ushbu cheklov bank tomonidan mazkur yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilishga, shu jumladan mazkur yuridik shaxslarning tashkil etilishi hollariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Shuningdek, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olish yig'indisi bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak [2].

Ushbu talablar Markaziy bank tomonidan har oy nazorat qilinib, buzilgan taqdirda banklarga jarima qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida"gi nizomga muvofiq, bankning bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak. Shuningdek, bankning bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi ta'minotsiz (ishonchga asoslangan) kredit uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur.

Aloqador shaxslar uchun tavakkalchilik me'yorlari ham alohida belgilangan:

bitta aloqador shaxs uchun limit 25 foiz, barcha aloqador shaxslarga to'g'ri keluvchi limit 50 foizdan oshmasligi shart.

Mazkur talablar banklarda risklarni kamaytirish va aktivlarni boshqarishni samarali tashkil etish maqsadida belgilangan. Markaziy bank riskka asoslangan nazorat tizimini shakllantirish orqali banklarning aktivlardan foydalanishini optimallashtirishga va ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirishga intiladi. Shu bilan birga, tijorat banklari

aktivlar portfelini shakllantirish va boshqarishda mustaqil hisoblanadi.

Tijorat banklarida aktivlarni boshqarishda ichki me'yoriy hujjatlar muhim ahamiyatga ega. Banklarda aktivlarni boshqarish siyosati, nizom va tartiblardan iborat ichki hujjatlar amaldagi qonunchilik hamda Markaziy bank talablariga muvofiq ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlari amaldagi qonunchilik hamda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqiladi va joriy etiladi. Bank faoliyatida aktivlarni boshqarishga oid ichki hujjatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bankning aktiv va passivlarini boshqarish siyosati;

bank likvidligini boshqarish siyosati;

kredit siyosati;

investitsiya siyosati;

foiz siyosati.

Bugungi kunda ushbu ichki me'yoriy hujjatlar aksariyat tijorat banklarida ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan bo'lib, ular bank aktivlarini samarali boshqarishda keng qo'llanilmoqda.

Banklarning aktivlar va passivlarni boshqarish siyosati konseptual mohiyatga ega bo'lib, bank faoliyatini tashkil etish va boshqa ichki hujjatlarni ishlab chiqishda asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Ushbu siyosat orqali bank aktiv va passivlarini boshqarish tizimini shakllantiradi. Bunda aktivlar va passivlar tuzilmasi hamda ular bilan bog'liq tavakkalchiliklar hisobga olinadi va bankning strategik maqsadlariga mos ravishda boshqaruv chora-tadbirlari belgilanadi. Shuningdek, bank marjasini talab darajasida saqlab turish ham ushbu siyosatning muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Bankdagi aktiv va passivlarni boshqarish siyosatining asosiy maqsadi — yuqori likvidlilik, maqbul darajadagi xatarlar doirasida barqaror va o'suvchi daromadga erishishni ta'minlashdan iborat. Bu borada

tijorat banklari o'z faoliyatini uchta asosiy maqsad — xavfsizlik, likvidlilik va rentabellik — o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratadi.

Shu boisdan ham aktiv va passivlarni boshqarish siyosati bankning umumiy strategiyasida muhim o'rin tutadi. U tavakkalchilikni minimallashtirgan holda maksimal rentabellikka erishishni maqsad qilgan barqaror moliyaviy boshqaruv asosini yaratadi.

Aktivlar va passivlarni boshqarish siyosatida belgilangan maqsadlarga erishish uchun bank ichida aniq vakolatlar doirasi belgilanadi. Shu asosda foizli hamda savdo operatsiyalarining likvidlilik va daromadlilik holatini belgilovchi omillar ustidan tizimli nazorat o'rnatiladi.

Tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarish bevosita ushbu aktivlar manbai hisoblangan passivlarni boshqarish bilan chambarchas bog'liqdir. Banklar turli xil manbalardan mablag'larni har xil muddat va foiz stavkalarida jalb qiladi. Shu orqali ular foydani maksimallashtirish va bank likvidligini ta'minlash maqsadida ushbu mablag'larning optimal kombinatsiyasiga erishishga intiladi.

Xulosa va takliflar.

Umumiy xulosa qilib aytganda, tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va barqarorligi ularning likvidlilik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Likvidlilikni ta'minlashda bank aktivlari va passivlarining to'g'ri boshqarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlar bankning moliyaviy resurslarini shakllantirsa, passivlar esa ushbu resurslarning manbalarini tashkil etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari likvidlilikni ta'minlashda passivlarning diversifikatsiyasiga va yuqori sifatli aktivlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Aktiv va passivlar balansini samarali boshqarish esa banklarga moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish va iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob qaytarish imkonini beradi.

Natijada, tijorat banklari faoliyatining uzluksizligi va ishonchliligini ta'minlash uchun aktiv va passivlar o'rtasida muvozanatni saqlash hamda ularning likvidligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga

oshirish zarur. Bu esa nafaqat alohida banklarning, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2709-son nizomi. 2015-yil 13-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari tomonidan ko'chmas mulkni va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 3441-son nizom. 2023-yil 8-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida"gi 3283-son nizom. 2020-yil 29-oktabr.
4. Gup, B.E. and Brooks, R. (1993) *Interest Rate Risk Management*. Irwin Professional Publishing, Burr Ridge.
5. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.2003. 368 с.
6. Осадчий В.В. Методология и принципы распределения активов // Журнал прикладных исследований. –2021. – № 6. – С. 128-132.
7. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi" –Toshkent: 2019. 322 b.